BUDJET TIZIMI BUDJETLARI IJROSI USTIDAN MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1320
Saidova Kamolat Farhodovna	
КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ПОРОЖДАЮЩИХ ЖЕНСКУЮ ПРЕСТУПНОСТЬ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ	1326
Нуриллоева Заррина Зокиржоновна	
SAMARQAND VILOYATI MEHMONXONA XO'JALIGIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TURISTLAR OQIMINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1331
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin qizi	
SOLIQ YUKINI HISOBLASH VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILINING METODOLOGIK JIHATLARI	1334
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ: ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ РЕЗЕРВЫ РОСТА И РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ ПЕРСОНАЛА.....	1341
Аминжоновна Вазира Мамасидиковна	
DZYUDOCHILARDA USHLAB OLISH (KUMI-KATA) STRATEGIYASINING MUSOBAQA NATIJALARIGA TA'SIRI.....	1350
Shermatov Gulom Qaxxorovich	
G'AZNACHILIK TIZIMIDA RISK LARNI ANIQLASH VA NAZORAT TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	1357
Xasanov Adiz Xusenovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI HAMDA UNI QISQARTIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY ISLOHOTLAR.....	1363
Beknazarov Behzod Baxtiyorovich	
IMPROVEMENT OF THE COMMERCIAL BANK PRIVATIZATION PROCESS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	1368
Djumaniyazov Islam Karimbayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SOHASI INVESTITSION VA EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI	1374
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENTI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	1378
Madaminov Bekzod Allayarovich	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA XAVF OMILLARI SHAROITIDA AGRAR BIZNESDA XARAJATLAR TAHLILI VA XATARLARNI BOSHQARISH.....	1383
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINING BOSHQARUVIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI	1387
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ ЭКСПОРТНОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ НА ОСНОВЕ ЭФФЕКТИВНОЙ ЛОГИСТИКИ И УПРАВЛЕНИЯ ЦЕПОЧКАМИ ПОСТАВОК	1392
Каримова Хулкар Рахманали кизи, Махмудуллоева Севинч Хабибулла кизи	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYALASHNING METODOLOGIK ASOSLARI	1399
Norova Nozima Nabiyevena	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1406
Ahmedova Dilnoza Qalandar qizi	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING EKOLOGIK MUVOZANATINI SAQLASH ORQALI BARQAROR RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI (NAVOIY VILOYATI TAJRIBASI)	1411
Barnoqulova Marjona Otabek qizi	
KORXONALARDA ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL, GOVERNANCE) HISOBOTLARINING AUDITINI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH MEKANIZMLARI.....	1417
Xolikov Ravshan Anvar o'g'li	



SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1420
Omonov Olim Murodullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	1424
Sharifi Abdul Fatah	
TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....	1430
Sadikov Q.M.	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	1434
Kurbosheva Mohira Xafizovna	
MURAKKAB LOYIHALARDA RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	1439
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
ЭФФЕКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТЬЮ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	1442
Камолова Феруза Кахрамоновна	
O'ZBEKISTON HUDUDIIY RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK YO'NALISHLARI.....	1448
Ma'murov Baxtiyor Xolmatjanovich	
O'ZBEKISTONDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1456
Ismailova Gulruh Faxriddinovna	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ПЕРСОНАЛОМ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ: ЦИФРОВИЗАЦИЯ, УПРАВЛЕНИЕ ТАЛАНТАМИ И МОТИВАЦИЯ.....	1462
Абилов Эльман Худаверди оглы	
O'ZBEKISTON BANKLARINING AML TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT: STRATEGIK ZARURAT VA JORIY ETISH YO'LLARI.....	1468
Rashidov Avazbek Raximovich	
GLOBALASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TUG'ILISH KO'RSATKICHLARI STATISTIK TAHLILI.....	1475
Abduraxmanov Abduazim Djalaliddinovich	
BANK KREDITINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RESURLAR BILAN TA'MINLASHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1483
Bo'tayev O'tkir Eshboevich	
TIJORAT BANKLARINI DAVLAT TASARRUFIDAN CHIQARISH VA XUSUSIYLASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA UNI CHUQURLASHTIRISH YO'LLARI.....	1489
Salamov Islom Tashkazakovich	
FRANCHAYZING ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI KORXONALAR MAHSULOTLARINI XALQARO BOZORDA ILGARI SURISHDA MERCHANDAYZING DIZAYNI VA VIZUAL MARKETING YONDASHUVLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	1495
Xodjayev Anvar Rasulovich	
ISHLAB CHIQRADIGAN SANOAT RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH.....	1501
Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich	
QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'LJALLANGAN YERLARNI BOSHQA YER TOIFALARIGA O'TKAZISHNING AXAMIYATI.....	1510
Safayev Sanjarbek Zafarbek o'g'li	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING KO'P OMILLI INDIKATORLARI TIZIMI.....	1516
Ibroximov Iloxjon Shavkatjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SAMARADORLIGI OMILLARI TAHLILI.....	1522
Maxmudova Maftunaxon Shavkatjon qizi	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORIJIY KREDIT LINIYALARINI JALB ETISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING AMALDAGI HOLATI.....	1529
Aytiboev Nodirbek Rashid o'g'li	



AUDITDA MUHIMLIK CHEGARASI KO'RSATKICHINI ANIQLASH MUAMMOLARI.....	1534
Pirnazarova Juldiz Djamiljan qizi	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СФЕРЫ УСЛУГ В ЭКОНОМИКЕ СТРАН МИРА И УЗБЕКИСТАНА.....	1538
Камилова Наргиза Абдукажорвна	
MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLARINI MUSTAHKAMLASHDA MOLIYAVIY RESURLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	1544
Imanova Umida Baxtiyorovna	
A COMPARATIVE ANALYSIS OF VOCATIONAL EDUCATION SYSTEMS IN SAUDI ARABIA AND UZBEKISTAN	1549
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
YO'LOVCHI TASHISHDA KICHIK TADBIRKORLIK SHAKLLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MODELLARI	1555
Aytieva Sevara Allaberdievna	
XIZMATLAR SEKTORIGA INVESTITSIYA JALB QILISHDA STRATEGIK TAMOYILLAR VA ULARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY NATIJALARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI.....	1561
Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li, Nabiyeu G'ulom Abdusalomovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA UNIVERSITETLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	1566
Boboxo'jayev Asliddin Muzaffarovich	
"YASHIL IQTISODIYOT" GA O'TISH JARAYONINI MOLIYALASHTIRISH	1571
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA XIZMATLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING ZARURLIGI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	1575
Umirov Abdisalom To'rayevich	
ASOSIY VOSITALAR HISOBINING ICHKI AUDITI.....	1583
Zaripova Sayohat Zafarovna	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIDA TO'LOVLAR TIZIMINING MOHIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING OBYEKTIV ZARURATI	1587
Tangirqulov G'ulom Baxtiyorovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNING UMUMIY HOLATI VA DINAMIKASI	1592
Asomidinova Mohigulbonu Oybek qizi	
XALQ BANKIDA KICHIK BIZNES LOYIHALARINI KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	1598
Norqobilova Nargiza Abdiquodirovna	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA AYRIM MASALALAR.....	1603
Abidov Mansur Ilhomjonovich	
BANK 4.0 SHAROITIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BANK BOSHQARUVI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1609
Boltayev Zokirjon Otanazarovich	
FMCG SEGMENTIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI VA UNING ASOSIY OMILLARI	1612
Anvar Deberdiyev	
XORAZM VILOYATIDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASHDA MARKETINGNING ROLI	1616
Otajanov Umid Abdullayevich, Isakova Naima Ikromjonovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	1625
Tilakov Navruz Maxmudovich	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA FISKAL INSTRUMENTLARNING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	1633
Mardonov Kamoliddin Karamiddinovich	



UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING KO'RSATKICHLAR TIZIMI (KPI): SHAKLLANTIRILISHI VA MONITORING MEKANIZMI.....	1640
Qahharov Zuhridin Zafarbek o'g'li	
STRUCTURAL TRANSFORMATION AND PRUDENTIAL RESILIENCE OF THE BANKING SECTOR OF UZBEKISTAN	1646
Malikova Dilrabo Muminovna	
YOQILG'I-ENERGETIKA KORXONALARIDA ENERGIYA TEJAMKOR TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA QARATILGAN INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	1653
Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li	
BANKLARDA AKTIVLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY JIHATLARI	1661
Xojibekova Zilola Shavkat qizi	
STRUCTURAL TRANSFORMATION AND PRUDENTIAL RESILIENCE OF THE BANKING SECTOR OF UZBEKISTAN	1669
Malikova Dilrabo Muminovna	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	1676
Назарова Гулчехра Нурмухамбетовна	
ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MOLİYAVIY HISOBOTLARNING SHAFFOFLIGINI OSHIRISHDA MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINING AHAMIYATI	1684
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li	



ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING SHAFFOFLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINING AHAMIYATI

Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) v.b., dotsent

E-mail: a.makhmudov@tsue.uz

ORCID: 0000-0003-4933-1233

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarning shaffoqligini oshirishda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda MHXS asosida tuzilgan hisobotlarning ishonchliligi, taqqoslanuvchanligi hamda investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga taqdim etiladigan moliyaviy axborot sifatini oshirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston ishlab chiqarish korxonalarida MHXSni joriy etishning afzalliklari, amaliy imkoniyatlari hamda ushbu jarayonni yanada takomillashtirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Natijada xalqaro standartlarga mos, shaffof va ishonchli hisobot tizimi ishlab chiqarish korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish, boshqaruv qarorlarini samarali qabul qilish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, MHXS, shaffoflik, ishlab chiqarish korxonasi, investitsion jozibadorlik, axborot sifati, ishonchlilik, taqqoslanuvchanlik, raqamlashtirish.

Аннотация. В данной статье освещается значение Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО) в повышении прозрачности финансовой отчетности производственных предприятий. В исследовании проанализирована роль отчетности, составленной на основе МСФО, в обеспечении достоверности, сопоставимости и повышении качества финансовой информации, предоставляемой инвесторам и другим заинтересованным сторонам. Кроме того, на основе международного опыта раскрыты преимущества внедрения МСФО на производственных предприятиях Узбекистана, практические возможности данного процесса, а также направления его дальнейшего совершенствования. В результате научно обосновано, что прозрачная и достоверная система отчетности, соответствующая международным стандартам, является важным фактором повышения инвестиционной привлекательности производственных предприятий, принятия эффективных управленческих решений и укрепления финансовой устойчивости.

Ключевые слова: финансовая отчетность, международные стандарты, МСФО, прозрачность, производственное предприятие, инвестиционная привлекательность, качество информации, достоверность, сопоставимость, цифровизация.

Abstract. This article highlights the importance of International Financial Reporting Standards (IFRS) in enhancing the transparency of financial reporting in manufacturing enterprises. The study analyzes the role of financial statements prepared in accordance with IFRS in ensuring reliability, comparability, and improving the quality of financial information provided to investors and other stakeholders. In addition, based on international experience, the article identifies the advantages of implementing IFRS in manufacturing enterprises of Uzbekistan, the practical opportunities of this process, and the directions for its further improvement. As a result, it is scientifically substantiated that a transparent and reliable reporting system aligned with international standards is an important factor in increasing the investment attractiveness of manufacturing enterprises, supporting effective managerial decision-making, and strengthening financial stability.

Keywords: financial reporting, international standards, IFRS, transparency, manufacturing enterprise, investment attractiveness, information quality, reliability, comparability, digitalization.



KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish hamda investitsion jozibadorlikni mustahkamlash yo'lida tub islohotlarni amalga oshirmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida [1] korxonalar faoliyatida ochiqlik, hisobdorlik va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) bosqichma-bosqich o'tish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Mazkur strategiya doirasida 2025-yilga kelib yirik ishlab chiqarish korxonalarining kamida 70 foizi MHXS asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlashi ko'zda tutilgan bo'lib, bu mamlakatda korporativ boshqaruv tizimi sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son Qarorida [3] ham moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash va investorlar ishonchini oshirish maqsadida xalqaro standartlarga muvofiq hisob yuritish mexanizmlarini keng joriy etish zarurligi ta'kidlangan. Ushbu hujjat ishlab chiqarish tarmog'ida faoliyat yuritayotgan korxonalarni xalqaro maydonga olib chiqish, ularning kapital bozorlaridagi ishtirokini kuchaytirish va xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Natijada 2024-yil yakunlariga ko'ra, MHXSga o'tgan korxonalar soni 2020-yilga nisbatan 42 foizga oshgan. Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi nafaqat buxgalteriya tizimini zamonaviylashtirish, balki investitsion muhitni yaxshilash, ichki va tashqi investorlar uchun ishonchli ma'lumotlar bazasini shakllantirish bilan ham bevosita bog'liqdir. Jahon tajribasiga ko'ra, MHXSga o'tgan korxonalarda o'rtacha investitsiya oqimi 15–20 foizga ortgan. Shu bois O'zbekiston ishlab chiqarish sektori uchun xalqaro standartlarga asoslangan ochiq moliyaviy hisobot tizimini shakllantirish strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

2026-yil 16-fevralda qabul qilingan "O'zbekiston–2030" strategiyasida [2] ham iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida shaffoflikni oshirish, xalqaro standartlarga muvofiq axborot almashinuvi mexanizmlarini joriy etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu strategiyada 2030-yilgacha ishlab chiqarish sohasidagi korxonalarning 100 foizi MHXS asosida hisobot yuritishga o'tishi, raqamli buxgalteriya tizimlari orqali ma'lumotlarning real vaqt rejimida shakllanishi belgilangan.

Bugungi kunda ishlab chiqarish korxonalarida MHXS talablari asosida tuzilayotgan hisobotlar orqali aktivlar, majburiyatlar va daromadlar haqidagi ma'lumotlarning aniqligi oshmoqda. Bu esa korxonalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim tahliliy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, ERP va "1C" kabi dasturiy platformalar yordamida hisobot jarayonlarini avtomatlashtirish natijasida inson omili ta'siri 30 foizgacha kamaygani kuzatilmog'da.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida shaffoflikni ta'minlash nafaqat korxonalarning ichki boshqaruvini takomillashtiradi, balki ularning tashqi iqtisodiy hamkorlik imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar, jumladan, Jahon banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTBT), MHXSga asoslangan hisobot yurituvchi korxonalarga nisbatan moliyaviy qo'llab-quvvatlash hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ishlab chiqarish korxonalarida MHXSni amaliyotga tatbiq etish O'zbekistonning 2022–2026-yillar va 2030-yilgacha bo'lgan strategik rivojlanish maqsadlariga mos keluvchi muhim iqtisodiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsion jozibadorligini kuchaytirish hamda korporativ boshqaruv sifatini yaxshilash masalalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, ishlab chiqarish korxonalarida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ni joriy etish moliyaviy axborotlarning ishonchiligi, taqqoslanuvchanligi va ochiqligini ta'minlashning muhim vositasi sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida korxonalar faoliyatida ochiqlik, hisobdorlik va xalqaro moliyaviy standartlarga bosqichma-bosqich o'tish vazifalari belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son¹ Qarorida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va xalqaro standartlarga muvofiq hisob yuritish mexanizmlarini keng joriy etish zarurligi qayd etilgan. "O'zbekiston–2030" strategiyasida esa iqtisodiyot tarmoqlarida shaffoflikni oshirish, xalqaro standartlarga mos axborot almashinuvi va raqamli hisobot tizimlarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida ko'rsatilgan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son <https://lex.uz/docs/-4746047>



Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda MHXSga o'tishning ishlab chiqarish korxonalari faoliyatiga ta'siri, moliyaviy hisobot sifatini oshirishdagi o'rni hamda buxgalteriya hisobini xalqaro talablar asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan. Xususan, A.A. Eshonqulov ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirishda MHXSning ahamiyatini tahlil qilgan bo'lsa, A.N. To'rayev MHXSga o'tishning korxonalar iqtisodiy faoliyati va boshqaruv qarorlariga ta'sirini o'rgangan. D.E. Norbekov, A.T. To'rayev va Sh.Sh. Rahmonovlarning ilmiy-uslubiy ishlari esa MHXSning nazariy asoslari, hisobot tuzish tartibi va amaliy qo'llanilishi bo'yicha muhim metodologik manba hisoblanadi.

Xorijiy tadqiqotchilar ishlarida ham MHXSning moliyaviy axborot sifati, auditorlik xulosalarining ishonchligi va investorlar qarorlariga ta'siri keng tahlil qilingan. Jumladan, C. Nobes tomonidan MHXS asosidagi hisobotlarning xalqaro taqqoslanuvchanligi va auditorlik tasdiqlari masalalari o'rganilgan. C. Stadler xalqaro amaliyotda MHXS talablarining turli tarmoqlarda qo'llanishidagi farqlarni tahlil qilgan. A. Johri esa xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining moliyaviy hisobot sifati va axborot ishonchligiga ta'sirini empirik jihatdan asoslab bergan.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, MHXSni joriy etish ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy axborotlarning ochiqligi va ishonchligini oshirish bilan birga, investitsion oqimlarni kengaytirish, auditorlik nazoratini takomillashtirish, korporativ boshqaruvni mustahkamlash va raqamli buxgalteriya tizimlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu jarayonda malakali kadrlar tayyorlash, milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, avtomatlashtirilgan hisobot platformalarini keng joriy etish va investorlar uchun tushunarli axborot muhitini shakllantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirishda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ning ahamiyatini aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, taqqoslash, statistik va dinamik tahlil, guruhlash hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini MHXS, moliyaviy hisobot shaffofligi, auditorlik nazorati, investitsion jozibadorlik va korporativ boshqaruvga oid mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalar tashkil etdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi, "O'zbekiston–2030" strategiyasi hamda MHXSga o'tish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganildi.

Empirik tahlilda 2020–2025-yillarda MHXSni joriy etish darajasi, xorijiy investitsiyalar o'sishi, auditorlik xulosasi ishonchligi, moliyaviy axborot ochiqligi, rentabellik va raqamlashtirish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Shuningdek, MHXS asosida va milliy standartlar asosida hisobot yurituvchi korxonalar ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi. Olingan natijalar asosida ishlab chiqarish korxonalarida MHXSni bosqichma-bosqich joriy etish, kadrlar malakasini oshirish va raqamli hisobot tizimlarini kengaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish bevosita MHXSni joriy etish darajasi bilan bog'liqdir. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida hisobot tizimini xalqaro talablar asosida modernizatsiya qilish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, yirik ishlab chiqarish korxonalarining 68 foizi, o'rta korxonalarning 47 foizi va kichik ishlab chiqaruvchilarning 25 foizi MHXS talablari asosida hisobot tayyorlagan. Bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan o'rtacha 2,1 baravar o'sishni ifodalaydi.

Natijada investorlar ishonchi va kapital jalb etish hajmi ham sezilarli darajada oshgan. Xususan, MHXSga o'tgan korxonalarda xorijiy investitsiyalar hajmi 2023-yilda 17 foizga, 2024-yilda esa 23 foizga ko'paygan.

Moliyaviy shaffoflikning oshishi natijasida ishlab chiqarish korxonalarida ichki nazorat, aktivlarni hisobga olish va daromadlar hisobini yuritish jarayonlari yanada aniqroq shakllangan. Bu esa nafaqat boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilashga, balki milliy iqtisodiyotda korporativ boshqaruv standartlarini mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda.

2030-yilgacha mo'ljallangan strategik yo'nalishlarga muvofiq, ishlab chiqarish sektorida faoliyat yurituvchi korxonalarning 100 foizini MHXS asosida hisobot yuritish tizimiga o'tkazish rejalashtirilgan. Quyidagi jadvalda 2020–2025-yillar oralig'ida MHXSni joriy etgan ishlab chiqarish korxonalari ulushi va shaffoflik ko'rsatkichlari dinamikasi keltirilgan (1-jadval).



1-jadval

2020–2025-yillarda ishlab chiqarish korxonalarida MHXSni joriy etish va shaffoflik ko'rsatkichlari dinamikasi, foizlarda

Yil	MHXSni joriy etgan korxonalar ulushi, %	Xorijiy investitsiyalar o'sishi, %	Auditorlik xulosasi ishonchliligi, %	Moliyaviy axborot ochiqligi, %	Soliq hisobi aniqligi, %	Rentabellik o'sishi, %	Kadrlar malakasi darajasi, %
2020	22	8	61	55	60	4,2	48
2021	31	11	68	60	65	4,6	53
2022	45	15	73	69	70	5,1	59
2023	58	17	78	75	75	5,8	66
2024	68	23	84	82	81	6,3	72
2025-yil prognozi	80	29	89	88	85	6,9	78

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, MHXSni joriy etgan korxonalar ulushining oshishi bilan bir qatorda moliyaviy axborotlarning ishonchliligi hamda shaffoflik ko'rsatkichlari izchil ravishda o'sib bormoqda. Bu holat xalqaro standartlar asosida hisobot yuritish korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirish va manfaatdor tomonlar uchun ishonchli axborot muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval

MHXS asosida hisobot yurituvchi va yuritmayotgan korxonalar o'rtasidagi investitsion farqlar, 2024-yil holatiga

Ko'rsatkichlar	MHXS asosida hisobot yurituvchi korxonalar	Milliy standartlar asosida hisobot yurituvchi korxonalar	Farq, %	Iqtisodiy natija
O'rtacha yillik investitsiya hajmi, mlrd so'm	520	340	+53	Investitsion oqim yuqori
Auditorlik xulosasining ijobiy baholanishi, %	88	65	+23	Ishonchlilik oshgan
Rentabellik darajasi, %	6,3	4,7	+34	Samaradorlik oshgan
Moliyaviy risklarning kamayishi, %	21	34	-13	Risklarni boshqarish darajasi yaxshiroq
Investorlar ishonchi indeksi	82	58	+41	Investorlar ishonchi mustahkamlangan

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, MHXS asosida hisobot yurituvchi ishlab chiqarish korxonalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari milliy standartlar asosida hisobot yurituvchi korxonalarga nisbatan yuqoriroq shakllangan. Xususan, investitsion oqim hajmi 53 foizga, rentabellik darajasi esa 34 foizga oshgan. Bu holat xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobot yuritish korxona imijini mustahkamlash, investorlar ishonchini oshirish hamda moliyaviy boshqaruv samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval

MHXS joriy etilgan korxonalarda raqamlashtirish darajasi va samaradorlik ko'rsatkichlari, 2024-yil holatiga

Ko'rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil	O'sish	Natija
Raqamli hisobot tizimidan foydalanuvchilar ulushi, %	55	68	76	+21	Jarayonlar avtomatlashtirilgan
Xato va takroriy yozuvlarning kamayishi, %	19	13	9	-10	Hisob ishonchliligi oshgan
Hisobot tayyorlash muddati, kun	14	10	7	-7	Tezkorlik yaxshilangan
Axborot almashinuvi samaradorligi, %	64	74	83	+19	Tizimlar integratsiyasi kuchaygan
Resurslardan foydalanish samaradorligi, %	71	77	85	+14	Xarajatlar kamaygan
Umumiy iqtisodiy samaradorlik indeksi, %	60	68	78	+18	Shaffoflik bilan bog'liq o'sish ta'minlangan



Ushbu jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, MHXS asosida hisobot yurituvchi korxonalarda raqamli transformatsiya jarayonlari izchil rivojlanmoqda. Natijada hisob-kitoblardagi xatoliklar kamaymoqda, ma'lumotlar tezroq shakllanmoqda hamda resurslardan foydalanish samaradorligi oshmoqda. Yuqoridagi uchta jadvaldan ko'rinib turibdiki, MHXSga asoslangan hisobot tizimi ishlab chiqarish korxonalarida nafaqat axborot shaffofligini, balki iqtisodiy samaradorlikni ham sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Raqamli buxgalteriya tizimlari, xalqaro hisobot metodologiyasi va auditorlik nazorati uyg'unlashgan holda faoliyat yuritgan korxonalarda umumiy iqtisodiy o'sish 18–25 foiz diapazonida qayd etilgan. Shu bois MHXSni 2030-yilgacha to'liq joriy etish mamlakat sanoat tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirish, investitsiyalar oqimini kengaytirish va korporativ boshqaruvni mustahkamlashning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarni MHXS asosida yuritish jarayonida takomillashtirilishi lozim bo'lgan ayrim tashkiliy, metodologik va amaliy jihatlar mavjud. Eng avvalo, buxgalteriya kadrlarining xalqaro standartlar bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarini yanada oshirish moliyaviy ma'lumotlarning sifati hamda taqqoslanuvchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ayrim korxonalarda raqamli texnologiyalarni kengroq joriy etish, hisobotlarni avtomatlashtirish tizimlarini to'liq integratsiyalash va auditorlik nazoratini yanada takomillashtirish moliyaviy shaffoflikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. MHXSning ayrim talablarini milliy qonunchilik bilan yanada uyg'unlashtirish esa amaliyotda yagona yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Natijada ishlab chiqarish korxonalari investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga to'liq, haqqoniy hamda ishonchli axborot taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ularning investitsion jozibadorligini yanada oshiradi.

Mazkur yo'nalishlarni takomillashtirish uchun bir qator yechim va takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Birinchi navbatda, moliyaviy hisobotlarni MHXS talablari asosida tayyorlaydigan mutaxassislar uchun doimiy malaka oshirish kurslari va xalqaro sertifikatlash tizimlarini, jumladan, ACCA va CPA kabi dasturlarni keng joriy etish muhim hisoblanadi. Ikkinchidan, korxonalarda raqamli hisobot platformalarini joriy qilish va sun'iy intellektga asoslangan buxgalteriya dasturlaridan foydalanish orqali inson omilini kamaytirish hamda ma'lumotlar aniqligini ta'minlash zarur. Uchinchidan, MHXSni milliy qonunchilikka uyg'unlashtirish bo'yicha Moliya vazirligi huzurida maxsus metodologik markaz tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, 2024–2026-yillar davomida MHXSga o'tuvchi korxonalar ulushining har yili 5–10 foizga oshib borishi mamlakat iqtisodiy ochiqqligini mustahkamlash va investorlar ishonchini kuchaytirishga xizmat qiladi (4-jadval).

4-jadval

Ishlab chiqarish korxonalarida MHXSni joriy etishning asosiy muammolari

No	Muammo nomi	Sabablar	Natija	2024-yildagi holat, %
1	Malakali kadrlar yetishmasligi	MHXS bo'yicha ta'lim va amaliy tayyorgarlikning yetarli darajada emasligi	Hisobot sifatini oshirish zarurati yuzaga keladi	58
2	Avtomatlashtirish darajasining pastligi	Dasturiy ta'minotning eskirganligi	Ma'lumotlarni shakllantirish jarayoni kechikadi	64
3	Normativ nomuvofiqlik	Milliy va xalqaro me'yorlar o'rtasidagi farqlar	Hisobotlarda tafovutlar yuzaga kelishi mumkin	43
4	Auditorlik nazoratini takomillashtirish zarurati	Mustaqil auditga bo'lgan talabning yetarli darajada shakllanmaganligi	Hisobot ishonchligini oshirish ehtiyoji yuzaga keladi	49
5	Axborot xavfsizligini kuchaytirish zarurati	Raqamli himoya vositalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi	Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash dolzarbligi ortadi	37
6	Investorlar uchun axborotning murakkabligi	Hisobot formatlarining yetarli darajada sodda va tushunarli emasligi	Investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi	55

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish korxonalarida MHXSni joriy etishda kadrlar salohiyati va texnologik tayyorgarlik darajasini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Eng avvalo, korxonalarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini kuchaytirish zarur. Bu hisobotlarda tasniflarning to'g'ri yuritilishi, ma'lumotlarning to'liq aks ettirilishi hamda auditorlik xulosalari sifatining oshishiga xizmat qiladi. Shuningdek, mavjud axborot tizimlarini modernizatsiya qilish va raqamli integratsiya darajasini oshirish orqali korxona hisobotlarini avtomatlashtirilgan shaklda qayta



ishlash imkoniyati kengayadi. Bu esa inson omili ta'sirini kamaytirib, moliyaviy axborotlarning aniqligi va ishonchligini oshiradi.

Shu bilan birga, MHXSning ayrim talablarini milliy qonunchilik bilan yanada uyg'unlashtirish buxgalteriya siyosatini ishlab chiqishda yagona metodologik yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Auditorlik tekshiruvlari sifati va mustaqilligini kuchaytirish esa moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Natijada investorlar korxona faoliyati haqida to'liq, ishonchli va taqqoslanuvchan axborotga ega bo'ladi, bu esa sarmoya kiritish jarayonining faollashishiga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishlarni takomillashtirish uchun bosqichma-bosqich yechim yondashuvini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Birinci bosqichda ishlab chiqarish korxonalarining buxgalteriya xodimlari va auditorlari uchun MHXS bo'yicha majburiy malaka oshirish hamda sertifikatlash tizimini, jumladan, ACCA yoki DipIFR kabi xalqaro dasturlarni keng joriy etish lozim.

Ikkinchi bosqichda moliyaviy hisobot jarayonlarini raqamlashtirish va korxonalarda yagona ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlarini joriy etish orqali axborotlarning avtomatik qayta ishlanishini ta'minlash zarur.

Uchinchi bosqichda MHXSni milliy qonunchilikka uyg'unlashtirish bo'yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida Metodik kengash tuzish hamda xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchi bosqichda korxonalarda har yili MHXS asosida mustaqil auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va ularning natijalarini ochiq e'lon qilish amaliyotini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

Beshinchi bosqichda investorlar uchun raqamli hisobot platformalari va interaktiv vizual tahlil tizimlarini yaratish orqali axborotning ochiqdigi, tushunariligi va amaliy ahamiyatini oshirish zarur.

Ushbu bosqichlar ketma-ket amalga oshirilsa, 2025–2030-yillar oralig'ida ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarning shaffoflik darajasi 40–45 foizga oshishi, auditorlik xulosalarining ishonchligi esa 50 foizdan yuqori darajaga yetishi mumkin. Natijada MHXS asosidagi buxgalteriya tizimi nafaqat korxonalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, balki O'zbekiston iqtisodiyotining xalqaro investitsion maydondagi nufuzini oshirishga ham xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirishda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) muhim strategik ahamiyatga ega. MHXSga o'tish korxonalarning moliyaviy natijalarini aniq, taqqoslanuvchan va ishonchli tarzda aks ettirish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, investorlar ishonchini oshirish, xorijiy sarmoya oqimini kengaytirish hamda korxonalarning xalqaro bozorlar bilan integratsiyasini jadallashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasida moliyaviy axborot tizimini modernizatsiya qilish, hisob siyosatini xalqaro talablarga uyg'unlashtirish hamda buxgalteriya hisobini raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur islohotlar ishlab chiqarish sektorining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

MHXSni joriy etish orqali korxonalarda hisobotlar sifati 30–40 foizga, auditorlik xulosalarining ishonchligi 45 foizga, investitsion jozibadorlik esa 50 foizdan ortiq darajada oshishi mumkin. Shu bilan birga, MHXSga o'tish jarayoni nafaqat hisobot shakllarini takomillashtirish, balki korporativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirish, axborot texnologiyalarini keng joriy etish va xalqaro biznes muhitida raqobatbardoshlikni oshirish uchun ham mustahkam asos yaratadi.

Demak, ishlab chiqarish korxonalarida MHXS asosida shaffof moliyaviy hisobotlarni yuritish O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida kelgusida mamlakatning xalqaro moliyaviy tizimdagi ishonchli hamkor sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>
3. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-4746047>



4. "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi PQ-282-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-6070771>
5. Eshonqulov A.A. Ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirishda MHXSning ahamiyati // O'zbekiston moliya va buxgalteriya amaliyoti. – 2025. – № 2(48). – B. 45–52. – Toshkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti.
6. To'rayev A.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning ishlab chiqarish korxonalari faoliyatiga ta'siri // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2024. – № 3(97). – B. 58–66. – Toshkent: TDIU nashriyoti.
7. Ergasheva Shakhlo T. Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga o'tishda dastlabki qadamlar / The First Steps in Transition to IFRS in Uzbekistan. – 2024.
8. Nobes C. Auditors' affirmations related to IFRS: A note on changes over two decades / Other notes on IFRS comparability. – 2024–2025.
9. Stadler C. Varied international practice in accounting for extractive activities under IFRS // Accounting Research Article. – 2024.
10. Johri A. Examining the Impact of International Financial Reporting Standards on Financial Reporting Quality // MDPI. – 2024.
11. Eshonqulov A.A. Moliyaviy hisobot: o'quv qo'llanma. – Toshkent: TIB NASHR, 2025. – 485 b.
12. Norbekov D.E., To'rayev A.T., Rahmonov Sh.Sh. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2019. – 332 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>